



Bilimni  
baholash  
agentligi

BILIM VA MALAKALARNI BAHOALSH  
AGENTLIGI  
*Bilimingga ishon va muvaffaqiyatga erish!*

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI, AKADEMIK LITSEYLAR  
VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARINING  
UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA  
OLIMPIADASINING IV (RESPUBLIKA) BOSQICHI  
ISHTIROKCHILARI UCHUN

ONA TILI VA ADABIYOT  
FANIDAN  
TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

*Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi*

*Imzo*

Ushbu test varianti 30 ta (1–30) topshiriqdan iborat.

Test topshirig'i uchun ajratilgan ball har bir test topshirig'ida aks ettirilgan.

Kitobda yopiq va ochiq turdag'i test topshiriqlari mavjud:

- yopiq turdag'i test topshiriqlarida bitta javobni (A, B, C yoki D) tanlang va javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga yozing;
- ochiq turdag'i test topshiriqlarining javobini javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga aniq va tushunarli tarzda yozing;
- moslashtirishni talab qiluvchi yopiq test topshiriqlari uchun umumiyligida (A–F) javob varianti berilgan, uchta topshiriqqa (28-, 29-, 30-test topshiriqlariga) ushbu javoblar orasidan mos ravishda bittadan javob tanlang va javoblar varaqasiga belgilang.

1.

[2,4 ball]

Imloyiy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.

- A) ganchkor, gallaktika, eksponat
- B) diagnoz, detektiv, apparat
- C) bahramand, grammatika, kalloriya
- D) ekoturizm, favqulotda, korrupsiya

2.

[2,4 ball]

Matnda qo‘llangan tinish belgilari haqidagi to‘g‘ri hukmni aniqlang.


*Erkin Vohidov badiiyat xazinamizga latif tuhfasi – "So‘z latofati"da shunday deydi: "Til millatning bosh belgisi hisoblanadi. Til bor – millat bor. Til yo‘q – millat yo‘q. Istiqlol unut bo‘lgan davlatchiligidan tikladi, yo‘q bo‘lishga mahkum qilingan tilimizni, demakki, millatimizni asradi va aziz qildi".*

- A) Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida tire tinish belgisining qo‘llanishi kuzatilgan.
- B) Ega va bog‘lamasiz ot kesim o‘rtasida tire tinish belgisining qo‘llanishi kuzatilgan.
- C) Qo‘shtirnoq belgisi barcha o‘rinlarda ko‘chirma gapni ajratish uchun qo‘llangan.
- D) Bosh gap va ergash gap o‘rtasida vergul tinish belgisining qo‘llanishi kuzatilgan.

3.

[2,4 ball]

Nutqda o‘zaro ma’nodoshlik hosil qila oladigan so‘zlar berilgan javobni belgilang.



4.

[2,4 ball]

Gapdagi morfemik tahlilga oid **XATO** berilgan javobni belgilang.




*Xonada o'sgan gul xonaki, chillada pishgan  
meva chillaki, har gapga jizzillab ketadigan odam  
jizzaki, boringki, o'sha jizzakining tars etib  
urgani tarsaki bo'lganidek, ters qo'yilgan  
qadam, ters qilingan ish tersaki bo'ladi. Lekin  
tersaki deyish qiyin. Teskari osonroq.*

- A) Taqlidlarga so'z qo'shish va qo'shimcha qo'shish usulida fe'l yasalishi kuzatilgan.
- B) O'rin otidan sifat turkumuga mansub so'zning yasalishi kuzatilgan.
- C) Ravish va sifat yasovchilarning ot asoslarga qo'shilishi kuzatilgan.
- D) Taqlid so'zlardan sifat va ot turkumuga mansub so'zlarning yasalishi kuzatilgan.

5.

[2,4 ball]

Quyidagi qaysi fe'l shakllari berilgan har uchala gapda uchraydi?



a) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi; b) ega vazifasini bajargan fe'l; c) otlashgan sifatdosh; d) harakat nomi;  
e) qo'shma fe'l; f) ravishdosh; g) sof fe'l.

- A) b, c, d, g
- B) b, c, e
- C) faqat b, c
- D) a, b, c, f, g

6.

[2,4 ball]

Gap haqida berilgan **XATO** hukmni toping.

*Shubha yo'qki, istiqlol yillarida tilshunoslik sohasi birmuncha rivojlandi. Katta jamoaning ko'p yillik  
mehnati – besh jildli izohli lug'atning nashr etilgani (garchi u mukammallikdan yiroq bo'lsa ham) el  
ma'rifati uchun foydali bo'ldi.*

- A) Ajratilgan bo'lak kesimga to'g'ridan to'g'ri tobelanib bog'langan.
- B) Barcha hollar kesimga to'g'ridan to'g'ri tobelanib bog'langan.
- C) Kirish gap ikki bosh bo'lakli gap bilan ifodalangan.
- D) Daraja-miqdor holi aniqlovchiga tobelanib bog'langan.

7.

[1,7 ball]

Asar qahramonlari va ular haqida berilgan ma'lumotlar **to'g'ri moslashtirilgan** javobni aniqlang.  
**DIQQAT!** Ikkita xato ma'lumot mavud.

- |          |  |
|----------|--|
| <b>1</b> | <b>Unsin</b><br>("Dahshat" hikoyasi)             |
| <b>2</b> | <b>Oygul</b><br>("Oygul bilan Baxtiyor" dostoni) |
| <b>3</b> | <b>Nodirmohbegim</b><br>("Dahshat" hikoyasi)     |

- |          |  |
|----------|--|
| <b>a</b> | qo'rkoqligi bois erk uchun kurasha olmaydi             |
| <b>b</b> | erki uchun kurash yo'lida halok bo'ladi                |
| <b>c</b> | erk uchun ko'tarilgan xalq kurashiga boshchilik qiladi |
| <b>d</b> | umri oxirigacha taqdiriga ko'nib yashaydi              |
| <b>e</b> | bir begunohning o'limi qalbida isyon uyg'otadi         |

- A) 1 – a, 2 – c, 3 – e  
 B) 1 – b, 2 – c, 3 – e  
 C) 1 – b, 2 – e, 3 – d  
 D) 1 – a, 2 – b, 3 – a

8.

[1,7 ball]

Erkin A'zamning "Tango qayiq" asari qahramoni Gulxadicha haqidagi to'g'ri hukm(lar)ni aniqlang.

1. *Insoniy qadriyatlarni mensimaydigan bir inson bo'lsa-da, xalq deputatligiga nomzod sifatida qaralayotgan obraz.*
2. *Orol boboga qilayotgan nohaqliklari uchun Qalimbetga adovat bilan munosabatda bo'ladi;*
3. *Otasi qattiq betob bo'lib qolgach, har qancha og'rinsa ham, shaharga – o'z uyiga olib ketib davolatadi.*

- A) 2 va 3    B) 1 va 2    C) faqat 1    D) 1 va 3

9.

[1,7 ball]

She'r tahliliga oid to'g'ri javobni belgilang.

Erkin Vohidov

USTOZNING YOSH SHOIRGA DEGANI

*Menga qulluq qilma,  
 Yurt tuprog'in o'p,  
 Unga qullar emas, fidolar kerak.  
 Uning sen-u mendek shoirlari ko'p,  
 Buyuk elga endi daholar kerak.*

*Qaddingni baland tut,  
 Bo'lma serta'zim,  
 Cho'qqi bo'lolmasang, mahkam qoya bo'l.  
 Pillapoya bo'ldim senga, azizim,  
 Sen ham gal kelganda pillapoya bo'l.*

- A) "*Cho'qqi bo'lmoq*" ifodasi "*bag'rikeng bo'lmoq*", "*makon bo'lmoq*" ma'nolarida qo'llangan.
- B) "*Qulluq qilmoq*" ifodasi "*faoliyat ko'rsatmoq*", "*xizmat qilmoq*" ma'nolarida qo'llangan.
- C) "*Serta'zim bo'lmoq*" ifodasi "*xushfe'l bo'lmoq*", "*dilkash bo'lmoq*" ma'nolarida qo'llangan.
- D) "*Pillapoya bo'lmoq*" ifodasi "*tayanch bo'lmoq*", "*fidoyilik qilmoq*" ma'nolarida qo'llangan.

10.

[1,7 ball]

Aleksandr Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romani voqealari bayoni qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

- A) Tatyana Onegindan qasd olish maqsadida unga rad javobini beradi.
- B) Tatyana or-nomus va g'ururini muhabbatdan ko'ra ustunroq deb biladi.
- C) Onegin Lenskiyning jahlini chiqarish maqsadida Tatyana ga dil izhor qiladi.
- D) Lenskiy azaliy adovat tufayli Oneginni noxushlik bilan qarshi oladi.

11.

[2,4 ball]

Qaysi javobda Said Ahmadning "Jimjitlik" romani qahramonlari haqida **XATO** talqin keltirilgan?

- A) O'zga yurtda og'ir judoliklarga uchragan Tolibjon o'z ona qishlog'iga qaytib, shu qadrdon maskandan o'zi izlagan jimjitlikka erishadi.
- B) Azizbek Mirvalining noplak qilmishilariga taqdirning muqarrar jazosi ijrochisi sifatida unga o'qilgan so'nggi hukmni ijro etadi.
- C) Tolibjon Stalin shaxsiga sig'inish oqibatlariga barham berilayotgan bir paytda ayni shu illat qurbaniga aylanib, o'z Vatanidan olisda umr kechiradi.
- D) Jayrona jamiyatdagi qora kuchlarga qarshi mardonavor kurashadi va Vatan oldidagi burchini, insoniylik mas'uliyatini jasorat bilan ado etadi.

12.

[1,7 ball]

Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani qahramonlari Hasanov va Akbarali mingboshi nutqidan olingen parchada "*turk-islam xalqining dushmanlari*" deya aslida qaysi hukumat nazarda tutilgan?

Mehmon davom etdi:

- Musulmonning qo'liga yaroq bermaydi bu hukumat. Biz musulmonlar, turk bolalari, o'zimiz yaroq olmasak, dushmanlarimiz o'zi o'z qo'li bilan bermaydi.
- Kim dushman? – dedi mingboshi. Bu savolda endi po'pisa asari bor edi. Mehmon sira shoshmasdan bernalol javob berdi:
- Sizning dushmaningizni aytayotganim yo'q, dodho afandi. Turk-islam xalqining dushmanlarini aytaman...
- Germanni aytasani?
- Hakimjon bordaniga kulib yuborishdan o'zini zo'rg'a to'xtatib qoldi.
- Shunday, taqsir! ...

(Cho'lpon, "Kecha va kunduz" romani)

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

13.

[0,9 ball]

Quyidagi she'rning janrini aniqlang.

*Ul pari ishqida bu devonani,  
Eyki, istarsen, kelib gulxanda ko'r.  
Bir qadah ul gulni xandon ayladi,  
Ey ko'ngul, nazzora qil, gulxanda ko'r.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

14.

[0,9 ball]

Raqamlab ko'rsatilgan qaysi gaplar juftligida o'zaro shakldoshlik hosil qilgan so'zlar ajratib ko'rsatilgan?



1.

- Har lahma zamonlar umridek uzun, Asrlar taqdiri lahzalarda hal.
- Tong allaqachon otgan, daraxt uchlariga oltin hal yuritilgandek edi.



2.

- Ba'zan yoshlar voqealarga nisbatan havoyi baho berishar ekan.
- Bu minoralar qanchalik nafis va purviqor, havoyi va xushbichim!



3.

- O'g'lining qo'lidagi kitob sahifasidagi rasm e'tiborini tortdi.
- Mehmonga dasturxon yozish – otabobolarimizdan qolgan rasm.



4.

- Yolg'onchining rost gapi ham yolg'on bo'lib tuyuladi.
- Mirzo yigit qaddini rost tutganicha viqor bilan borardi.


Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqsiga ko'chirib yozing.

15.

[1,7 ball]

Ko'p nuqta o'rniliga har ikkala ma'noni anglatuvchi **shakldosh iborani** yozing.



1) "yaxshilanmoq",  
"me'yorida  
davom etmoq"

2) "zimdan ta'qib  
qilmoq", "payiga  
tushmoq"

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqsiga ko'chirib yozing.

16.

[1,7 ball]

Quyidagi gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilaringin **to'g'ri ketma-ketligini** yozing.

*Adabiyotshunos olim 1999-yilda Alpomish dostonining ming yilligi jahon miqyosida nishonlanishi hamda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq baxshisi unvonining ta'sis etilishi bu unvon 2000-yil 14-martda ta'sis etilgan juda quvonarli hodisa bo'ldi degan edi hayajon bilan.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqsiga ko'chirib yozing.

17.

[0,9 ball]

Gapda olmoshning necha ma'no turi ishtirok etgan?

*Gap ko'p – ko'mir oz. Bu iborada men chugur ma'no, tagdor fikr ko'rmadim. Bu gapda ne badiiyat, ne hikmat bor? O'yashimcha, bu ibora aslida "Gap ko'p-ku – umr oz" bo'lgan.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqsiga ko'chirib yozing.

18.

[0,9 ball]

Gapdagi qaysi so'z(lar)ni ayiruv bog'lovchisi bilan almashtirib qo'llash mumkin?

*Farg'onaga borgunimizcha hali Shukrullo, hali Mirmuhsinning tanishlari topilaversa, bu yaqinda manzilga yetolmaymiz.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqsiga ko'chirib yozing.

19.

[0,9 ball]

Gapda ajratib ko'rsatilgan so'z tobelangan hokim so'zni aniqlang.

*Olimlarimiz zimmasida nafaqat o'zbek tili rivoji, balki umuman turkiy tillar taraqqiyoti uchun qayg'urmoq, ularning qismatini o'yalamoq mas'uliyati ham bordir.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqsiga ko'chirib yozing.

20.

[0,9 ball]

Berilgan gapdagi umumlashtiruvchi bo'lakning sintaktik vazifasini **aniqlang**.

*Ey ko'zimning qorasi, odamlar bilan murosa-yu madoraga kirishish ham, yaxshi muomala qilish ham – hammasi, albatta, sadaqa – savobli amaldir, buni unutma.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

21.

[0,9 ball]

Parchada egasiz (bir bosh bo'lakli) gaplarning qaysi turi ishtirot etgan?

– «*Uyqu istagi*» qaysi Chexovniki? – dedi Hamida.

– Hech shubhasiz, bu Chexovniki. Bu narsa birinchi marta «*Sovremennik*» jurnalida bosilgan.

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

Matnni o‘qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

## POLIMERLAR

1

Polimerlar tabiatda har qadamda uchraydi. Ular har bir mikroorganizm, o‘simlik va hayvonlarning muhim qismi hisoblanadi. Odam organizmini tashkil etgan moddalar orasida ham polimerlar kam emas. Mushak to‘qimalari, teri va soch ham polimerlardir. Polimerlar organizmning hayotiy faoliyati natijasida hosil bo‘lgan.

2

Polimerlar tabiiy va sun’iy polimerlarga bo‘linadi. Polimerlar monomerlardan tashkil topgan molekulalar zanjiridan iborat ekanligi aniqlandi. Uzun molekula zanjirchalarining bir-biri bilan turlicha birikuvi moddalarga puxtalik, egiluvchanlik, qayishqoqlik va nafislik bag‘ishlaydi. Barcha tirik mavjudotlar organizmida polimerlar mavjud bo‘ladi.

3

Ba’zi polimerlarning plastmassalar deb atalishi ham beziz emas. Zanjirchalar bir yo‘nalishdagi chiziq bo‘ylab o‘rnashgan bo‘lsa, puxta va egiluvchan modda hosil bo‘ladi, koptoksimon bo‘lib joylashgan bo‘lsa, rezina xossasiga ega bo‘lgan modda hosil bo‘ladi. Zanjirchaga yana bir molekulalar guruhi qo‘shilsa, polimerda yangi xossalalar paydo bo‘ladi.

4

Shunisi qiziqliki, agar ayni bir guruh zanjirchaning turli joyiga qo‘shilsa, har gal yangi modda hosil bo‘ladi. Po‘latdek mustahkam, asl metallardek chidamli, rezinadek egiluvchan, paxtadek yumshoq bo‘lgan polimerlar stanoklar va samolyotlarda metall o‘rnida ishlatilmoqda, ko‘pgina qurilish materiallari o‘rnini bosmoqda, paxta, jun, ipak bilan muvaffaqiyatli raqobatlashmoqda.

22.

[0, 9 ball]

Matnda aks etgan ma’lumotni aniqlang.

- A) Polimerlar yuqori haroratda ham parchalanmaydi.
- B) Polimerlar kimyoviy reyaksiyaga chidamli bo‘ladi.
- C) Polimerlar tabiatda faqat suyuq va qattiq holda uchraydi.
- D) Polimerlar tarkibiy tuzilishi sabab egiluvchan bo‘ladi.

23.

[0, 9 ball]

Matn mazmuniga mos to‘g‘ri shakllantirilgan jumani aniqlang.

- A) Sun’iy polimerlar sof metallar guruhiga mansub bo‘ladi.
- B) Samolyotning faqat qanot qismi polimerdan ishlangan bo‘ladi.
- C) Polimerlar tirik organizmlarning asosiy qismini tashkil qiladi.
- D) Dastlab polimerlarning tarkibi aniq bo‘lmagan.

24.

[0, 9 ball]

Qaysi raqam bilan ajratib ko‘rsatilgan qismda matnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan jumla mavjud?

- A) 2
- B) 4
- C) 3
- D) 1

**Baytlarni o‘qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.**

\*\*\*

- (1) *Manga ul ko‘zi qora dedi chuchuk chandin so‘z,  
Ne ajab ani qorako‘z desam-u, shirin so‘z.*
- (2) *Labi yuz va’dani andoq manga yolg‘on qildi,  
Ki dey olmas kishi yuz yilda bir andoq chin so‘z.*
- (3) *Beli-yu la’li labi ollida lol o‘ldi xirad<sup>1</sup>,  
Kim erur biri daqiq-u<sup>2</sup> biri bas<sup>3</sup> rangin so‘z.*
- (4) *Har fasohatki<sup>4</sup>, labing qildi, Masiho eshitib,  
Jon topib, kelmadi og‘zi aro juz<sup>5</sup> tahsin so‘z.*

LUG‘AT: *xirad<sup>1</sup> – aql; daqiq<sup>2</sup> – nozik; bas<sup>3</sup> – juda; fasohat<sup>4</sup> – yoqimli, go‘zal nutq; juz<sup>5</sup> – . . . dan boshqa.*

**25.**

[2,4 ball]

Baytlarning mazmuni to‘g‘ri izohlangan javobni belgilang.

- A) 3-bayt – Yor go‘zalligini ta’riflash uchun biror yoqimli so‘z yo bir go‘zal rang topilmaydi.
- B) 1-bayt – Yor chuchuk suxan, shirinso‘zlik bilan oshiqqa "qorako‘z" deya murojaat qiladi.
- C) 4-bayt – Yorning so‘zlashi shu qadar jonbaxshki, hatto Masih alayhissalom ham hayrat ichida qoladi.
- D) 2-bayt – Yor shu qadar ko‘p yolg‘on so‘zlaydiki, uning yolg‘onlari yuz yilda ham ado bo‘lmaydi.

**26.**

[2,4 ball]

Baytlardagi she’riy san’atlar qaysi javobda to‘g‘ri talqin qilingan?

- A) "Lom" harfi takrori istixroj san’atini yuzaga keltirgan.
- B) Fikr bayonida tardi aks san’atidan foydalanilgan.
- C) Tasbe san’ati misralardagi tadrijiylikni ta’milagan.
- D) Shakldosh so‘zlar tajnis san’atini yuzaga keltirgan.

**27.**

[2,4 ball]

Baytlarda quyidagi qaysi tashbeh aks etgan?

- A) Odamning joni bir lahzalik so‘zga qiyos qilingan.
- B) Yolg‘on so‘zning yoqimligi shirinlikka qiyoslangan.
- C) Yorning bejirim lablari qimmatbaho toshga qiyos qilingan.
- D) To‘g‘ri so‘z yorning tik qaddiga qiyos qilingan.

**28-30.**

**28-30. Gaplar (28, 29, 30) va ular haqidagi hukmlarni (A-F) to‘g‘ri moslashtiring.**

Gaplar	Hukmlar
<b>28.</b> [1, 7 ball] <i>Yetmishinchi yillarning boshi edi. Yozuvchilar uyushmasining ijod uyida bir keksa yoqut adib bilan go‘shti bo‘lib qoldim.</i>	A) Undalma ishtirok etgan.  B) Ajratilgan bo‘lak ishtirok etgan.  C) Atov gap ishtirok etgan.  D) Uyushiq bo‘laklar ishtirok etgan.  E) Shaxsi noma'lum gap ishtirok etgan.  F) Shaxsi umumlashgan gap ishtirok etgan.
<b>29.</b> [1, 7 ball] <i>Qizaloq har gal taom yeb bo‘lgach: "Axiy, men bitdim", – derdi.</i>	
<b>30.</b> [1, 7 ball] <i>Tatar, boshqird tillarida otani "atiy", onani "aniy" deyishlari ham ayon, lekin otaning "axiy" deb atalishi menga yangilik bo‘ldi.</i>	